



## IJTIMOIIY SOHA STATISTIKASI BO'LIMI TO'G'RISIDA

### N I Z O M

#### I.Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Samarqand viloyati statistika boshqarmasi Ijtimoiy soha statistikasi bo'limining (keyingi o'rinlarda - Bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Boshqarma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Samarqand viloyati statistika boshqarmasining (keyingi o'rinlarda - Bo'lim deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Boshqarma o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi topshiriqlariga, Samarqand viloyati statistika boshqarmasi to'g'risidagi Nizomga, mazkur Nizomga, shuningdek, boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim Ijtimoiy soha statistika boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Xalqaro darajada tavsiya etilgan statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modeli barcha bosqichlarida ishtirok etadi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini boshqarma boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi. Bo'limga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarmaning tashkiliy tuzilmasiga asosan boshqarma boshlig'iga bo'ysunadi.

#### II. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar Bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza, turizm, fan va ilmiy-texnikaviy salohiyat statistikasiga oid ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va nashr qilish;

Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy muhofaza, turizm, fan va ilmiy-texnikaviy salohiyat statistikasiga oid statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, xolisligi, kompleksligi va tizimlilikini ta'minlash;

Bo'lim tomonidan tayyorlanadigan statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash bo'yicha

doimiy ish olib borish;

Ijtimoiy statistikaga oid ma'lumotlarni elektron shaklda yig'ish, qayta ishlash, jamlash, saqlash va taqdim etishning yagona texnologik tizimini muntazam takomillashtirib borish;

Jamlanma hisobotlar asosida olingan ma'lumotlarni birlamchi statistik tahlil qilish ishlarini amalga oshirish;

Davlat statistika ishlari dasturining tegishli bo'limlari ishlarini belgilangan muddatlarda va xajmlarda bajarilishini ta'minlash;

Ijtimoiy statistika bo'yicha yakka tartibdagi statistika ma'lumotlarining maxfiyligini ta'minlash.

8.Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib, quyidagilarni amalga oshiradi:

Davlat statistikasi tamoyillariga va xalqaro standartlar va qoidalarga mos keluvchi yagona statistika uslubiyatiga rioya etilishini ta'minlash;

Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq aholi sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza, turizm, fan va ilmiy-texnikaviy salohiyat statistikasi bo'yicha statistik kuzatuvlar o'tkazish, to'plash, qayta ishlash, saqlash va statistik ma'lumotlarni nashrga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

Ijtimoiy statistika bo'yicha statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va umumlashtirishni takomillashtirish ishlarini olib borish;

Davlat statistika qo'mitasining ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda ijtimoiy soha holatini tavsiflovchi belgilangan ko'rsatkichlar ro'yxatiga asosan ma'ruzalar va statistik to'plamlar uchun, xalqaro tashkilotlar uchun, shuningdek qo'mita rahbariyati topshirig'i bo'yicha turli ma'lumotlarni tayyorlash;

Ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda xududiy statistika organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning xaqqoniyligini tekshirish;

Statistik ma'lumotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish.

### **III. Bo'limning xuquq va majburiyatlari**

9.Bo'lim statistikaning yagona ilmiy uslubiyati asosida statistik ma'lumotlarning sifatlilikini yo'lga qo'yish va oshirishga, statistik, taxliliy va o'z vakolati doirasidagi boshqa materiallarning saviyasiga javobgardir.

Bo'lim xodimlari hisobot taqdim etuvchilarning yakka tartibdagi ma'lumotlarining mahfiyligini ta'minlashga, kelib tushuvchi va chikuvchi materiallar bo'yicha davlat va tijorat sirlarini saqlashga javobgardir.

10.Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi xuquqlarga ega:

Viloyat statistika boshqarmasi rahbariyatiga Statistika ishlari dasturining tarkibi va mazmuni bo'yicha takliflar kiritish;

Yuridik shaxslar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'eklardan belgilangan xajmlarda va muddatlarda davlat statistika hisobotlarini olish va statistik maqsadlarda foydalanish;

Bo'limga yuklatilgan vazifalarni bajarishda zarur bo'lgan ma'lumotlarni viloyat statistika boshqarmasining bo'limlaridan, tuman (shahar) statistika bo'limlaridan olish;

Viloyat xududidagi muassasalar va tashkilotlarda statistika ma'lumotlarining ishonchliligi va to'liqligini belgilangan tartibda tekshirish, statistik hisobot ko'rsatkichlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha korxonalar va tashkilotlar vakillari bilan o'zaro hamkorlikda ish olib borish.

11. Bo'lim Davlat statistika qo'mitasi bilan kelishgan holda, viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan bo'lim boshlig'i tomonidan boshqariladi.

### **Bo'lim xodimlarining funksional vazifalari:**

#### **1. Bo'lim boshlig'i:**

- Bo'limning barcha faoliyatini boshqaradi va bajarilishi lozim bo'lgan yuklatilgan ishlarga, majburiyatlarga, ijro va mehnat intizomi holatiga javobgarlikni, shuningdek mehnat jamoasidagi ma'naviy va ruhiy muhitga shaxsiy javobgarlikni oladi;

- Bo'limni kadrlar bilan to'ldirib borish va Bo'lim ishining samaradorlik darajasini oshirish bo'yicha choralar ko'radi;

- Qo'yilgan vazifalar, Bo'limga kiruvchi xujjatlar nazorati va ish jarayonida tajriba almashish bo'yicha Bo'lim xodimlari bilan yo'riqnoma tarzidagi yig'ilishlar o'tkazadi;

- Ish yuritish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishining qat'iy nazorati bo'yicha ishlarni tashkil etadi, ishga oid bo'lgan xujjatlar bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha o'rnatilgan tartibga xodimlarning amal qilishini ta'minlaydi.

- Bo'lim boshlig'i quyidagi xuquqlarga ega:

-Bo'lim xodimlari o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash va ularning lavozim yo'riqnomalarini ishlab chikish;

- Xodimlarni lavozimini oshirish, joyini o'zgartirish va rag'batlantirish, zarur hollarda jazo choralarni qo'llash bo'yicha takliflar kiritish;

- Bo'limning yuqori malakali xodimlari lavozim maoshlariga alohida ustamalar qo'shish, shu bilan birga, ilgari o'rnatilgan ustamalarni kamaytirish va bekor qilish bo'yicha takliflar kiritish;

- Bo'lim ishlarini takomillashtirish, shuningdek hisobot, ijro va mehnat intizomini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish;

- Idoralar, korxonalar va tashkilotlar bilan Bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalarni hal qilishda viloyat statistika boshqarmasi nomidan ish yuritish;

- Bo'limga kelib tushuvchi va chiquvchi ma'lumotlar bo'yicha davlat va tijorat sirlarini saqlanishini ta'minlash.

#### **2. Bo'lim bosh mutaxassisi:**

- Bo'lim tomonidan tayyorlanadigan statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash bo'yicha doimiy ish olib borish;

- Qo'yilgan vazifalar, Bo'limga kiruvchi xujjatlar nazorati va ish jarayonida tajriba almashish bo'yicha Bo'lim xodimlari bilan yo'riqnoma tarzidagi yig'ilishlar o'tkazadi;

- Viloyat xududidagi muassasalar va tashkilotlarda statistika ma'lumotlarining ishonchliligi va to'liqligini belgilangan tartibda tekshirish, statistik hisobot ko'rsatkichlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

- Davlat statistika qo'mitasining ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda ijtimoiy soha holatini tavsiflovchi belgilangan ko'rsatkichlar ro'yxatiga asosan ma'ruzalar va statistik to'plamlar uchun, xalqaro tashkilotlar uchun, shuningdek qo'mita rahbariyati topshirig'i bo'yicha turli ma'lumotlarni tayyorlash;

-Ijtimoiy soha statistika bo'yicha statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va umumlashtirishni takomillashtirish ishlarini olib borish.

- Bo'lim tomonidan tayyorlanadigan statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash bo'yicha doimiy ish olib borish;

- Viloyat xududidagi muassasalar va tashkilotlarda statistika ma'lumotlarining ishonchliligi va to'liqligini belgilangan tartibda tekshirish, statistik hisobot ko'rsatkichlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda ularni bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

- Davlat statistikasi tamoyillariga va xalqaro standartlar va qoidalariga mos keluvchi yagona statistika uslubiyatiga rioya etilishini ta'minlash;

- Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, ijtimoiy muhofaza, turizm, fan va ilmiy-texnikaviy salohiyat statistikasi bo'yicha statistik kuzatuvlar o'tkazish, to'plash, qayta ishlash, saqlash va statistik ma'lumotlarni nashrga tayyorlash ishlarini tashkil etish;

- Ijtimoiy soha statistika bo'yicha statistik ma'lumotlarning sifatini yaxshilash, ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va umumlashtirishni takomillashtirish ishlarini olib borish;

- Davlat statistika qo'mitasining ijtimoiy soha statistikasi boshqarmasi bilan hamkorlikda ijtimoiy soha holatini tavsiflovchi belgilangan ko'rsatkichlar ro'yxatiga asosan ma'ruzalar va statistik to'plamlar uchun, xalqaro tashkilotlar uchun, shuningdek qo'mita rahbariyati topshirig'i bo'yicha turli ma'lumotlarni tayyorlash;

- Ijtimoiy soha statistikasi hamda boshqarmasi bilan hamkorlikda xududiy statistika organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning xaqqoniyligini tekshirish.

Bo'lim boshlig'i:

Bosh mutaxassis:

B. Qurbonov  
T. Begmurodov